



## VIRUSLI GEPATIT B VA UNING PROFELAKTIKASI

**Abdujabborova E'zoza Erkinovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8129116>

**Annotatsiya:** Virusli gepatit B - nima? Bu gepatit B virusi tomonidan chaqiriladigan, jigar to'qimasining yallig'lanishi bilan kechadigan, kechishi va oqibati jixatidan bir nechta turlari mavjud bo'lgan virusli kasallik xisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, Yer shari axolisining 1/3 qismidan ko'pi gepatit B bilan zararlangan. Hozirda gepatit B virusi tashuvchilar soni 350 milliontani tashkil etadi. Bu infeksiya ayniqsa Janubiy sharqiy Osiyo va Afrika davlatlarida keng tarqalgan. Shu boisdan har bir inson o'z sog'ligiga e'tiborsiz bo'lmasligi darkor.

Mazkur maqola gepatit B virusining organizmda rivojlanish bosqichlari, uning davolash usullari va profilaktikasi haqida bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Fulminant, suniy artifitsial yo'llar, gematogenli gisseminatsiya, gepatotsitlar bilan fiksatsiyasi, HBsAg, HBeAg, jigar kasalliklari, surunkali virusli gepatit, gepatoprotektor.

Xalq tilida "sariq kasal" deb nomlangan gepatit virusli kasallik hisoblanadi. Unda jigar hujayralari zararlanishi kuzatilib, jigar faoliyati buzilishi oqibatida organizmda intoksikatsiya — zaharlanish yuz beradi. 5 gepatit turi mavjud – A, B, C, D va E.

Gepatitning o'tkir va surunkali turlari bor. O'tkir gepatit bilan kasallangan odam jigar qayta tiklanishiga imkon berish uchun bir yilgacha qat'iy parhez tutishi, spirtli ichimliklardan voz kechishi kerak. Surunkali gepatit o'linga olib keluvchi jigar sirrozi va saratoni kabi asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

**Gepatit B** — kasallik turlari orasida eng xavfli hisoblanadi. Yiliga ushbu kasallikdan 700 ming odam vafot etadi. Hozirgacha ham kasallik qo'zg'atuvchisiga bevosita ta'sir qiladigan preparat yo'q. Davolash muolajalari jigarni yaxshilash va sirrozga aylanishining oldini olish hisoblanadi. Kasallik qon va odam organizmidan ajraladigan boshqa suyuqliklardan yoki onadan homilaga yuqadi. Agar kasallangan odamning bir tomchi qoni hovuzga tushsa, undagi suv zararlanish xavfi bo'ladi.

Gepatit B virusi gepadnoviruslar oilasiga mansub va sferik shakliga ega bo'lib diametrik 40-48nm. Qobig'i fosfolipiddan ichki qismi nukleokapsid yoki yadrodan iborat. HBV inglizcha hepatitis B virusi – DNK sining uch shakli farqlanadi. Kavalentli yopiq xalqasimon, bo'shashgan xalqasimon va chiziqsimon sitoplazmada joylashgan.





HBsAg gepatotsitlar sitoplazmasida keragidan ortiq ishlab chiqorilganligi sababli bemor qonida to'laqonli viruslar emas balki uning bo'lakchalari ko'proq uchraydi. O'rtacha bitta virusga 1000dan 1000000 gacha HBsAg to'g'ri keladi.

Virusning yuqish usullari tabiiy va sunniy yo'llar bilan bo'ladi. Gemofiliyaga chalingan bemorlar, hamshiralar, transfuziologlar, jarrohlar, akusher-ginekologlar, stomatologlar, labarantlar, giyohvandlar, tatuirovka chizdiruvchilar yuqtirish ehtimoli bo'lgan xavf guruhiga kiradilar. Virus organizmga tushgach birinchi navbatda replikatsiya (ko'payishi), tematogenli disseminatsiya (qon orqali tarqalishi) va gepatotsitlar bilan fiksatsiyasi (bog'lanishi) sodir bo'ladi. Bu bosqich kasalikning inkubatsion davriga to'g'ri keladi. Virusning keyingi gepatotsitlardagi replikatsiyasi ikkilamchi viruslanish davri deb ataladi va jarayon jigar strukturasi va funksional xolati tuzilishlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli xil klinik-patogenetik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

HBV virusi jigar parenxemasini ya'ni gepatotsitlarni zararlaydi. 1) sariqlik. 2) sariqliksiz. 3) klinik ko'rinishsiz bo'ladi. Yashirin muddati 40-180 kungacha. Sariqlikdan oldingi davr 1-2-xaftagacha davom etadi. Quyidagi sindromlar kuzatilishi mumkin - artroalgik, dispeptik, astenovegetativ, qo'ziqorin shaklda, aralashgan kam uchraydigan yashirin davr. Kasalik asta sekin boshlanadi 2-5 kundan keyin zaiflik latergiya ishtaxaning yo'qolishi, ko'ngil aynishi va qayd qilish. Artralgiik sindrom - suyak va bo'g'imlarning og'rig'i. Sariqlikdan oldingi davr oxirida siydik qo'ng'ir ranga aylanadi. Sklera keyin esa teri oq tusga kiradi. Sariqlik davri 3-4,5 haftagacha va undan uzoq davom etishi mumkin. Intoksikatsiya belgilari kuchayadi, sariqlik belgilari ham kuchayadi. Uyquning buzulishi eyforiya, apatiya, asabiylashish kuzatiladi. Bradikardiya, gipotenziya, jigar va taloqning kengayishi xarakterlidir.

Virusli gepatit B strukturasi quyidagi qator antigenlar mavjud:

HBsAg - tashqi lipoproteid qobig'ida ( Avstraliya antigeni ) joylashgan antigen. Gepatit B virusi yadrosiga antigen- HbcAg (Deyntanachasining muhim tarkibiy qismi)

HBeAg-gepatit B virusining E antigeni.

Kasallik asosan qon orqali yuqadigan gepatit B virusi bilan tanaga zarar yetkazish natijasida yuzaga keladi. Gepatit B ning kelib chiqish sabablari:

- himoyalangan jinsiy aloqa, jinsiy sherikning tez-tez o'zgarishi;
- inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qilish, tatuirovka salonlari xizmatlaridan foydalanish (iflos igna orqali yuqtirish);
- qon quyish, tibbiy muassasalarda operatsiyalar paytida infektsiya yuqishi;
- infeksiyalangan odamning shaxsiy gigiena vositalaridan foydalanish;





- tug'ruq paytida onadan homilaga virus yuqishi.

Gepatit B ni davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- virusga qarshi preparatlar;
- gepatoprotektorlar;
- immunomodulyatsion vositalar.

Birinchi alomatlar paydo bo'lganda, kasallikni o'tkazib yubormaslik uchun shifokor ko'rigidan o'tish kerak.

Hozirgi vaqtda gepatit B ni to'liq davolash mumkin, tuzalgandan so'ng, bemor virusga qarshi umrbod immunitetga ega bo'ladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, virusli gepatit B bilan bemorlarning aksariyati 15-29 yoshni tashkil etadi. Ayniqsa 20-29 yoshga kelib kasalik yaqqol namoyon bo'ladi. Gepatit B virusi tarqalishining eng xavfli guruhi o'smirlar xisoblanib, narkotik in'ektsiyalari va jinsiy yo'l orqali yuqish asosiy o'rinni egalamoqda. Gepatit B virusi xavfli bo'lsada undan tuzalish imkoni bor albatta!

Gepatit B virusining oldini olish uchun avvalambor inson o'z sog'ligiga beetibor bo'masligi va bu kasalikning oldini olish uchun quyidagilarga e'tiborli bo'lish kerak.

- o'z vaqtida emlanishi;
- tibbiy muassasalarida barcha vositalarni yaxshilab sterilizatsiya qilinganligiga ishonch xosil qilish;
- jinsiy aloqa paytida kontratseptivlaridan to'g'ri foydalanish;
- shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish;
- sog'lom turmush tarziga rioya qilish va boshqalardan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ichki kasaliklar" Abdug'affor Gadayev. Toshkent "Turon Zamin Ziyo" 2014 yil.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. "Yuqumli kasaliklar" A.K. Dayssenova

